Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK 371.31(021)
ORCID 0009-0006-2090-077X

TALABALARNING O‘ZGARUVCHAN TA’LIM MUHITI SHAROITIDA MOSLASHUVCHAN FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Abdullayev Siroj Abdurashidovich
Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning o‘zgaruvchan ta’lim muhiti sharoitida adekvat moslashuvi pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Xususan, global raqamli transformatsiya, gibrid o‘qitish shakllari, yangi ta’lim standartlari va shaxsiy kompetensiyalarga qo‘yilayotgan talablar talabalardan moslashuvchan fikrlash, innovatsion yondashuv va ijtimoiy-psixologik adaptatsiyani talab etayotgani asoslab beriladi. Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida maqolada olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, ilg‘or pedagogik texnologiyalar va ularning amaliy samaradorligi yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida quyidagilar asos qilib olingan: talabalarni yangi ijtimoiy muhit va ta’lim muhitining me’yorlari hamda qadriyatlariga moslashtirish; o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash; shaxslararo munosabatlar ko‘nikmasini rivojlantirish; mas’uliyat hissini shakllantirish; mustaqil faoliyat yuritish malakalarini rivojlantirish; tashabbuskorlik va faollikni rag‘batlantirish; vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini hosil qilish hamda axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini yuksaltirish.

Kalit so‘zlar: o‘zgaruvchan ta’lim muhiti, moslashuvchan fikrlash, didaktik jarayon, shaxs, adaptatsiya, ijtimoiy-psixologik moslashuv, kompetensiya, tashabbuskorlik, innovatsion texnologiyalar.

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING STUDENTS' ADAPTABLE THINKING IN A CHANGING EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation: This article analyzes adequate adaptation of students in the context of a changing educational environment as a pedagogical problem. In particular, it is justified that global digital transformation, hybrid forms of training, new educational standards and requirements for personal competencies require flexible thinking, an innovative approach and socio-psychological adaptation from students. In order to eliminate this problem, the article covers research work, advanced pedagogical technologies and their practical effectiveness.

As a research methodology, the following are based on: adapting students to the norms and values of the new social environment and educational environment; building self-confidence; developing the skills of interpersonal relationships; forming a sense of responsibility; developing skills for independent activities; stimulating initiative and activity; generating time management skills; and enhancing competencies for working with information.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

Keywords: changing educational environment, adaptive thinking, didactic process, personality, adaptation, socio-psychological adaptation, competence, initiative, innovative technologies.

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ АДАПТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В ИЗМЕНЯЮЩЕЙСЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация: В данной статье анализируется адекватная адаптация учащихся в условиях меняющейся учебной среды как педагогическая проблема. В частности, будет обосновано, что глобальная цифровая трансформация, гибридные формы обучения, новые образовательные стандарты и требования к личным компетенциям требуют от учащихся гибкого мышления, инновационного подхода и социально-психологической адаптации. В целях преодоления данной проблемы в статье освещаются проводимые научно-исследовательские работы, передовые педагогические технологии и их практическая эффективность.

В качестве методологии исследования за основу были взяты: адаптация учащихся к нормам и ценностям новой социальной среды и образовательной среды; укрепление уверенности в себе; развитие навыков межличностных отношений; формирование чувства ответственности; развитие навыков самостоятельной деятельности; поощрение инициативы и активности; формирование навыков тайм-менеджмента; а также повышение компетентности в работе с информацией.

Ключевые слова: изменяющаяся образовательная среда, адаптивное мышление, дидактический процесс, личность, адаптация, социально-психологическая адаптация, компетентность, инициатива, инновационные технологии.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida zamon talablariga javob bera oladigan, innovatsion fikrlashga ega, o‘zgaruvchan ta’lim muhiti sharoitida samarali faoliyat ko‘rsata oladigan pedagogik kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada ta’lim jarayonini tashkil etishning shakl va uslublarini takomillashtirish, o‘quv-metodik ta’minotni yangilash, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va vositalarini variativ asosda joriy etish ishlari tizimli olib borilmoqda. Zero, ta’limning barqaror rivojlanishi ta’lim subyektlarining, xususan, talabalar va pedagog kadrlarning o‘zgaruvchan sharoitlarga tezkor va moslashuvchan tarzda javob bera olish qobiliyatiga bog‘liq.

Ma’lumki, oliy ta’lim tizimi tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib, an’anaviy qadriyatlar asosida faoliyat yuritib kelgan. Biroq hozirgi davrda globallashuv, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim muhitining tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, virtual-elektron, innovatsion-integrativ, differensial-variativ kabi yangi ta’lim muhitlarining shakllanishi kuzatilmoqda. Ushbu muhitlar an’anaviy ta’limga nisbatan ko‘proq erkinlik, moslashuvchanlik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni taqozo qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Shaxsning jamiyat va muhitga moslashuvi masalasi qadimdan pedagogik tafakkurning markaziy g‘oyalaridan biri bo‘lib kelgan. Ilk bosqichlarda bu masala afsona, ertak, maqol va topishmoqlar kabi og‘zaki xalq ijodiyoti orqali talqin etilgan. Ularning asosida esa kishilarning ijtimoiy muhitda o‘zini tutish, moslashish va faoliyat yuritish me’yorlari yotgan.

Ilmiy yondashuv nuqtai nazaridan shaxsni ta’lim muhitiga moslashtirish muammosi Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy kabi buyuk

allomalar tomonidan o‘rganilgan. Forobiy insonni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda aqliy, axloqiy va ijtimoiy moslashuvni birlamchi deb hisoblagan. Beruniy va Ibn Sino esa ilmga asoslangan tafakkur va muhitga ongli moslashuvning ahamiyatiga urg‘u berganlar.

Zamonaviy davrda bu yo‘nalish bo‘yicha O‘zbekiston olimlaridan M. Ochilov, R.X. Jo‘rayev, T. G‘afforova, N. Muslimov, D.A. Mustafoyeva, X.Xudayqulov, O. Musurmonova, M. Urazova, D. Himmataliyev, Sh. Nurullayeva, N. Oripova kabi tadqiqotchilar tomonidan qimmatli ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Ularning izlanishlarida talabaning o‘quv muhiti bilan o‘zaro munosabati, moslashuvchanlik, faol o‘quv pozitsiyasini shakllantirish, innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish masalalari yoritilgan.[11,5,7,6]

MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan V.V. Pikan, A.G. Asmolov, Y.I. Sanina, A.V. Zolotareva, L.I. Kulagina, T.V. Jivokorenseva kabi olimlar o‘zgaruvchan va variativ ta’lim muhiti sharoitida o‘quvchilar va talabalar shaxsini shakllantirish, ijtimoiy-psixologik moslashuv, ta’limda kompetensiya yondashuvi masalalarini chuqur tahlil qilganlar.[12,5,4]

Xorijiy mutaxassislardan Aleks Mur, A.M. Malkolm, D. Dikson, J. Gaillard, D. Shaefferlar pedagogik faoliyatni keng ijtimoiy va metodologik kontekstda ko‘rib chiqqanlar. Ularning tadqiqotlarida ta’limdagi o‘zgarishlar, metodik moslashuv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida samarador ta’lim muhitini shakllantirish masalalari muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, M. Vartofskiy, Kurt Gedel, V.A. Shtoff, A.N. Daxinlar tomonidan ilgari surilgan pedagogik modellashtirish yondashuvlari ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishiga asos yaratgan.[9,5,6]

Shu tariqa, adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, o‘zgaruvchan ta’lim muhitida talabaning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida shakllantirish va o‘zlashtirish darajasini oshirish borasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyatga ega. Biroq ushbu yo‘nalishda amaliyotga samarali texnologiyalarni joriy etish, ularning pedagogik asoslarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot Metodologik asoslar: Zamonaviy o‘zgaruvchan ta’lim muhitida talabalarni adekvat moslashtirish muhim metodologik asoslarni talab etadi. Bu metodologiya nafaqat talabalarning ta’lim jarayoniga texnik yoki tashkiliy moslashuvini, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy, psixologik va kasbiy jihatdan rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Quyidagi asosiy yo‘nalishlar talabalarning o‘zgaruvchan muhitga samarali moslashishida muhim metodologik tayanch vazifasini bajaradi:

- **Yangi ijtimoiy jamoa va ta’lim muhiti qadriyatlarini qabul qilishga yo‘naltirish** – talabaning yangi jamoa va muhitdagi axloqiy, madaniy va me’yoriy normalarni ichki ehtiyoj sifatida anglashiga ko‘maklashadi;
- **Shaxsga bo‘lgan ishonchni oshirish** – talabaning o‘z imkoniyatlariga ishonchi, o‘zini anglash va baholash darajasi rivojlantiriladi;
- **Shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish** – samarali ijtimoiy va akademik aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun zaruriy kompetensiyalarni rivojlantirish;
- **Mas’uliyat hissini rivojlantirish** – har qanday faoliyat turiga mas’uliyat bilan yondashish, intizom va rejalilikni shakllantirish;
- **Mustaqil yashash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish** –

talabaning shaxsiy hayoti va ta'lim jarayonidagi mustaqil harakatga tayyorligi;

- **Tashabbuskorlik va faollikni rag'batlantirish** – kreativ fikrlash, yangilikka intilish va yangiliklarni qo'llashga tayyorlikni shakllantirish;
- **Vaqtdan unumli foydalanish** – vaqtni to'g'ri rejalashtirish va uni samarali boshqarish ko'nikmasini shakllantirish;
- **Axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish** – raqamli texnologiyalar bilan ishlay olish, ma'lumotni izlash, tahlil qilish va undan foydalana olish salohiyatini oshirish.

Talabalarni moslashtirish yo'nalishlari

Talabalarni o'zgaruvchan ta'lim muhitiga adekvat moslashtirish jarayoni ko'p yo'nalishli, kompleks va uzluksiz bo'lishi kerak. Quyidagi yo'nalishlar aynan talaba shaxsining yangi sharoitga moslashuvi va uning samarali o'quv faoliyatini tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi:

- **Shaxsiy rivojlanishning optimal yo'llarini ishlab chiqish**;
- **Muloqot madaniyatini demokratlashtirish** – talaba va o'qituvchi, talaba va jamoa o'rtasidagi munosabatlarda ochiqlik va tenglik prinsiplarini yo'lga qo'yish;
- **O'quv muassasasida qulay psixologik muhit yaratish** – talabaning o'zini erkin his qilishi uchun ijtimoiy-psixologik sharoitlarni yaratish;
- **Talabaning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar**;
- **Ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish** – kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni qo'llab-quvvatlash;
- **Variativ ta'lim yo'nalishlarini joriy etish** – talabaga o'ziga mos ta'lim dasturini tanlash imkonini beruvchi moslashuvchan o'quv modellarini tatbiq qilish.

Natijalar va muhokama: O'zgaruvchan ta'lim muhitining asosiy xususiyati — uning doimiy yangilanishi va dinamik tusda bo'lishidir. Bu muhit an'anaviy ta'lim tizimidan tubdan farqlanib, talabadan faol, mustaqil, moslashuvchan fikrlashni va ijtimoiy kompetensiyalarni talab qiladi. Shunday sharoitda, moslashuv (adaptatsiya) masalasi dolzarb pedagogik muammoga aylanmoqda.

Adaptatsiyaning turlari:

1. **Biologik adaptatsiya** – insonning tabiiy va ekologik sharoitga moslashuvi.
2. **Fiziologik adaptatsiya** – organizmning jismoniy muhitga moslashishi.
3. **Psixologik adaptatsiya** – psixik funksiyalar (xotira, tafakkur, emotsiya)ning muhitga moslashuvi.
4. **Ijtimoiy adaptatsiya** – shaxsning ijtimoiy guruhga, yangi jamoaga moslasha olishi.
5. **Kasbiy adaptatsiya** – o'qish yoki ish joyi talablari bilan muvofiqlashuv.
6. **Shaxsiy adaptatsiya** – shaxsiy qadriyatlar, qiziqishlar asosida muhitga moslashish.

Adaptatsiyaning kechishiga ta'sir etuvchi omillar:

- surunkali kasalliklar;
- oiladagi muammolar yoki qattiqqo'llik;
- muloqotda sustlik;
- psixologik deviant xatti-harakatlar;
- tortinchoqlik va o'ziga ishonchsizlik.

Adaptatsiya davrlari:

- 1 oy ichida moslashish;
- 6 oy ichida moslashish;
- 1 yil va undan ortiq vaqt davomida moslashish.

Talabalarni o'zgaruvchan ta'lim muhiti sharoitida moslashtirish – nafaqat ularning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini, balki kelajakdagi kasbiy hayotini ham belgilab beruvchi muhim omildir. Talabalar o'rtasida moslashuvchan fikrlashni shakllantirish, ularni mustaqil qaror qabul qilishga, faol va

tashabbuskor bo‘lishga o‘rgatish — zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifasidir. Shu boisdan, o‘quv muassasalari tomonidan zamonaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvga xizmat qiluvchi texnologiyalarni ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga joriy etish zarur.

Xulosa

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta’lim tizimi tubdan o‘zgarib, o‘zgaruvchan va variativ muhitda faoliyat yuritishga tayyor kadrlarni tayyorlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalariga qadam qo‘ygan talabalar uchun yangi ijtimoiy-madaniy, didaktik va psixologik muhitga moslashish muammosi jiddiy e’tibor talab qiladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zgaruvchan ta’lim muhitida talabalar bir vaqtning o‘zida bir nechta moslashuv turlarini boshdan kechiradi: kognitiv, ijtimoiy, didaktik, motivatsion va fiziologik moslashuv. Bu jarayon esa har bir talabaning individual xususiyatlari, tarbiyaviy tajribasi va ijtimoiy muhitga bog‘liq bo‘lib, ayrim hollarda moslashuv inqirozi bilan kechishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4310-son qarori. *“Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*, 2019 yil 3-may.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrirda), 2020 yil.
3. Aleks Mur. *Pedagogika: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Asmolov, A.G. *Psixologiya lichnosti*. – Moskva: Smysl, 2007.
5. Davronov, E., & Qayumov, S. *Ta’lim muhitining o‘zgaruvchanligi va moslashuv muammolari*. – Ilmiy maqola, “Pedagogik innovatsiyalar” jurnali, 2022, №2.
6. Daxin, A.N. *Modelirovanie v pedagogike*. – Moskva: Pedagogika, 2005.
7. Forobiy, A.N. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU”, 1993.
8. G‘afforova, T. *Oliy ta’lim psixologiyasi*. – Toshkent: TDPU, 2020.
9. Ibn Sino. *Tib qonunlari*. – Toshkent: Fan, 1980.
10. Muslimov, N.A. *Pedagogik mahorat asoslari*. – Toshkent: TDPU, 2012.
11. Oripova, N. *Kasbiy ta’limda innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent: Fan, 2021.
12. Pikan, V.V. *Obrazovatelnaya sreda i adaptatsiya studentov*. – Moskva: Akademiya, 2010.
13. Shodiev, R. *Pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
14. Yulbarsova, X.A. *Kasbiy ta’lim pedagogikasi*. – Toshkent: Fan, 2019.